

SERIES - A

ISSUE №1 2023

SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL



ISSN: 2181-4279

INTERNATIONAL EDUCATION RESEARCH



SAMIYEVA SHAXNOZ XIKMATOVNA
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
samiyeva-1978@mail.ru, +998905103103

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TARIXIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

DOI: [10.5281/zenodo.7671115](https://doi.org/10.5281/zenodo.7671115)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni tahlil qilingan bo'lib, ushbu faoliyatning tarixiy yo'nalishlari yoritib berilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar, qonuniyatlar, tuzilish, ta'lim va tarbiya mexanizmi, pedagogika nazariyasi va tarixi, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari, uning mazmuni, tamoyillari, usullari va tashkiliy shakllari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, ma'naviy fazilat, tarbiya, yoshlar, tadqiqotlar, pedagogika nazariyasi.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi.

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish bo'lajak o'qituvchilarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda [1].

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu pedagogic tadqiqot hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar - bu qonuniyatlar, tuzilish, ta'lim va tarbiya mexanizmi, pedagogika nazariyasi va tarixi, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari, uning mazmuni, tamoyillari, usullari va tashkiliy shakllari to'g'risida ijtimoiy ahamiyatga ega bilimlarni olishga qaratilgan ilmiy faoliyatning jarayoni va natijasi hisoblanadi. Zamonaviy o'qituvchi tadqiqotchi bo'lishi va shu

bilan birga o'z professional darajasini ko'tarishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy ishlar va mavjud amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchini shakllantirish, uning o'zini o'zi anglashi, shaxsini rivojlantirish va ochib berish uchun zarur shartdir. Bu sizga ilmiy va nazariy pedagogik bilimlar sohasidagi harakatlaringizni tushunishga imkon beradi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quv jarayoni uchun maxsus ijodiy muhit yaratish yo'llarini izlashi mumkin va kerak.

"Pedagogik faoliyat - bu bir qator tadbirlarning murakkab tashkil etilgan tizimi bo'lib, ularning har biri A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasiga ko'ra maqsad, motivlar, harakatlar va natijalarga ega. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati uning ko'p funktsiyali ekanligidir. Ilmiy-pedagogik faoliyatning bunday tuzilishi uchun etarli asoslar mavjud. Yu.N.Kuliutkinning fikriga ko'ra, pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi uning "metafaollik", ya'ni boshqa faoliyatni, ya'ni talabalarining o'quv faoliyatini tashkil etish faoliyati ekanligidadir [2].

Shunday qilib, pedagogik ilmiy bilimlarning pedagogik ijod manbayi sifatida rolini anglamasdan, eng yuqori, tadqiqot darajasida ijodiy faoliyat mumkin emas. V. Zagvyazinskiy ta'kidlashicha, "O'qitish va

shaxsiy rivojlanish qonuniyatlarini, pedagogik qidiruv usullari va texnikasini, pedagogik bilim va taxminlarni, me'yor va qidiruvni, reja va improvizatsiyani to'g'ri ko'rib chiqish qobiliyati o'z-o'zidan sezgirlikdan ongli, rejalashtirilgan, ilmiy holatga o'tish shartidir. - asosli pedagogik ijod ". O'qituvchining ijodiy faoliyatini o'rgangan olim, o'qituvchining tadqiqot va ijodiy faoliyati ajralmas degan xulosaga keladi. Ijodiy o'qituvchi faoliyatida doimo tadqiqot elementi mavjud [3].

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'sha davrning fan-texnika rivoji hamda natijalarining muntazam iste'molda bo'lishi muhim rol o'ynagan va hattoki, ba'zan ular fan-texnika taraqqiyotida inqilobiy tusda ham ro'y bergan. Bu haqda "Tosh asri", "Bronza asri", "Energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi" asri, "Atom asri", "Axborotlashgan jamiyat sari asri", "Intelktual asr" kabi ko'rinishdagi dalillarning guvohimiz.

NATIJALAR

Ilm-fandagi bunday inqilobiy jarayonlar ishlab chiqarish kuchlari va ilm-fanning rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy jarayon bo'lib, u o'zida ilm-fan yutuqlarini, zamonaviy texnikani ishlab chiqarish usullarini integrasiyalagan murakkab dinamik tizimdir.

Mazkur jarayonni tashkil etuvchi omillarning o'ziga xos vazifalari bor. Bunda ilm-fan – muammo echimidagi, ya'ni ushbu jarayondagi asosiy faoliyatni yurituvchi ilmiy manba (nazariya, algoritm, model, uslub, uslubiyat va h.k.) vazifa-sini bajaradi; zamonaviy texnika – ilm-fan yutuqlarini moddiy qo'llanish vazifasini bajaradi (vositalar: mashina va mexanizmlar, qurilmalar, asboblardan hamda telekommuni-kasiya elementalari) va ishlab chiqarish usullari - ilm-fan yutuqlari hamda ular asosida paydo bo'lgan texnika va texnologiyalarni amalda joriy etish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ilm-fanning asosiy xususiyatlaridan eng asosiysi, uning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishidir,

ayniqsa bunda innovasion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Hech kimga sir emaski, yer yuzida yashayotgan odamlar tashqi qiyofasi jihatidan (rangi va shakli) ham, yashash tarzi va urf-odatini bo'yicha ham, tafakkur va mafkura doirasi bo'yicha ham, tili va dili bo'yicha ham, millati va irqi bo'yicha ham, kasb-kori va mansabi bo'yicha ham, milliy qadriyatlar va boshqa xislatlari bo'yicha ham farq qiladi. Ammo, dunyoviy ishlar, umum-bashariy qadriyatlar insonlarni bir-biriga yaqinlash-tirib turadi. Bu borada, ayniqsa ilm-fan va uning yutuqlari ahamiyati beqiyosdir. Buning dalili sifatida olov, gugurt, g'ildirak, yozuvning paydo bo'lishi, kitobning yaratilishi, me-tallarga ishlov berish texnologiyasining yaratilishi, bug 'ya ichki yonuv dvigatellarining yaratilishi, atomdan tinchlik maqsadlarida foydalanilishi, elektrning hosil qilinishi, elektronika sohasi yutuqlarining keng tarqalishi, kompyuterlarning yaratilishi va keng tarqalishi, telefonlarning keng ko'lamdagi variantlari va shu kabilarni keltirish mumkin [4].

Bu borada Abu Rayhon Beruniy bobomiz "Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zarura-tidan paydo bo'ladi", deb bejiz aytmagan. Umuman olganda ilm-fan kishilarning jamiyat oldiga qo'ygan vazifalari asosida rivoj topadi. Bu haqda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, kishilarning "Oynai jahon" ni istashi natijasida televedeniening bugungi taraqqiyotiga erishildi yoki "Uchar gilam"ni orzu qilishi orqali samolyotlarni yaratishga va hattoki kosmonavtika rivojiga ham katta hissa qo'shildi. Shuningdek, bugungi kunda avtomobilsozlikning rivojlanish ko'rsatkichlari jamiyatning har bir a'zosini qiziqtirishi shubhasiz. Hisoblash texnikasi rivojiga e'tibor beraylik, oddiy sanoq cho'plaridan yoki abaklardan boshlangan hisoblash texnikasi taraqqiyoti bugungi kunda sekundiga bir necha million amal bajaradigan kompyuterlar paydo bo'lishiga olib keldi va h.k. Bularning hammasi ilm-fanning jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga mos talablari asosida takomillashib, rivojlanib boraveradi,

chunki o'sha davr shuni talab qiladi, aks holda jamiyat taraqqiyotida salbiy ta'sirlar paydo bo'ladi. Bunda taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bu, tabiiyki, jarayonlarga inno-vasion yondashuvdir.

Shu sababli ilm-fanning asosiy xususiyatlaridan biri ham shundan iboratki, u bevosita ishlab chiqarish kuchiga, iste'molga tayyor texnika-texnologiyaga, metodologiyaga aylanadi. Bundan tashqari ilm-fanning yana bir xususiyati umumiy ijodiy ishlarning anchagina qismini xususiy ilmiy tadqiqot ishlari ham egallaydi. Bu esa ilm-fanning keng qamrovliligiga xos xususiyatdir. Shu orqali ilmiy tadqiqot ishining ko'lami, sohasi, ahamiyati va yo'nalishi aniqlanadi. Ma'lumki, bugungi kun jamiyatni innovasiyalashtirish (intellektuallashtirish axborotlashtirish) bilan baholanmoqda. Bu zamonaviy ilm-fan rivoji saviyasiga keskin ta'sir qilmoqda.

Zamonaviy ilm-fanda xususiy sohalar bilan birgalikda, ularning integrasiyasi ham paydo bo'lmoqda. Jumladan, bionika, matematik logika, kibernetika, informatika, ergo-nomika, iqtisodiyot, mashina-traktor parkidan foydalanish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va h.k. Bunday yo'nalishlarning vujudga kelib, juda tez rivojlanishiga asosiy sabablardan biri matematika fani yutuqlarining turli fan yo'nalishlarida va hatto, ijtimoiy fan sohalarida ham samarali qo'llanilishida.

Bunday xususiyatlarni o'zida mujassam qila olgan har qanday fan o'zi o'rganishi lozim bo'lgan manba (hodisa, jarayon, predmet, qonun-qoida va h.k.)ga tadqiqotning kompleks va tizimiy yondashuv usullarini samarali qo'llay oladi.

MUHOKAMA

Demak, yuqorida ta'kidlanganidek ilm-fan rivoji kishilar, jamiyat, qolaversa davlat taraqqiyoti va xalq faro-vonligi, yurt tinchligi uchun ham xizmat qila olishi lozim. Ulardagi keng qamrovlilik va maxsuslik (tor ma'nodagi muhim muammolarga mo'ljallanganligi), taraqqiyoti saviyasi, sohalar integrasiyasi hamda manbaga nisbatan tizimiy yondashuv tadqiqot usullarin-

ing barcha-barchasi jamiyat taraqqiyotida o'zining mos o'rinlariga ega va o'sha sohalar rivojiga samarali ta'siri bilan ham ular ko'proq ahamiyatlidir.

Shu sababli ham "Ilm-fanning oliy maqsadi kishilar farovonligiga va ularning muntazam rivojiga xizmat qilsin", degan fikrni shior qilib ijod qilinsa, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi roli va o'rni yanada oshar edi [5].

O'zbek xalqi va uning pedagogik qarashlarining dastlabki ildizlari juda qadim tarixga ega, ya'ni ular "Avesto"ga, Urxun Enisey bitiklariga, Selingur madaniyatiga borib taqaladi. "Avesto" dagi asosiy g'oyalardan bo'lgan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tizimi haqida kishilarga ko'ngil ma'rifatini berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogikamizning dastlabki asoslari bo'lib, unda va shu kabi nodir qo'lyozmalarimizda barkamol shaxsni shakllantirish muammolari echimi ifoda etib kelingan. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik ta'lim-ning asosiy maqsadlaridan biri milliy tarbiyamizga barkamol shaxsni shakllantirishning didaktik asosi sifatida qarab, barkamol avlodni tayyorlash muammolarini hal qilishdan iboratdir. Shularni e'tiborga olib milliy pedagogikamizda millat ruhiyatining nozik jihatlari kirib borish imkoniyati yaratilganligi sababli u bugungi kunda muntazam ravishda taraqqiy etmoqda va unga barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifa qo'yilgan.

Mamlakatimizda sog'jom va intellektual jihatdan kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish "XXI asr-intellektual asr" da qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmuni-mohiyatga ega bo'lib, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni

davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan.

O'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak, ajdodlarimiz ham yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e'tibor berib kelgan va ularning doimo amaldagi orzusi bo'lgan, ya'ni bu istiqbolli orzusi doimiy maqsadga aylangan va bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmand-ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo'lgan. Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati ("Fozil odamlar shahri"), Yusuf Xos Hojibning "Saodatga eltuvchi bilim", shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya'qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja YUsof Hamadoniy, Abdulholiq G'jjduvoniy va boshqalarning ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, A. Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug'bekning koinot ta'limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni isloh qilish sohasidagi "Hatti Boburiy", A.Navoiyning adolatli jamiyat va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiasining "Donishmandlik uyi" ("Bayt-ul hikma") dagi ta'limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o'tmish merosimizga ega bo'lgan ajdodlarimiz orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga, islohotlar qilishga ilhomlantirdi.

Jumladan, oliy ta'lim tizimida ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, bulardan maqsad - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan zararli sarqitlardan

to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish.

Ma'lumki, bunday maqsadni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimida islohotlarni muntazam amalga oshirish va kuzatib borish hamda lozim topilganda rostlash, tuzatish kerak bo'ladi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatini oshirishda esa quyidagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- oliy ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, o'qituvchi, muallim va pedagogning kasbiy nufuzini oshirish;
- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turini rivojlantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish;
- ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar dasturlarini tubdan o'zgartirish;
- ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish va yangilarini yaratish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el intellektuallashtirilgan investisiyalari ko'lamlarining kenga-yishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlan-tirish bilan bog'liq, ya'ni kasb – hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- milliy mafkura tamoyillari va xalqning boy in-tellektual merosi hamda umumba-shariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta'limni boshqarish tizimini takomil-lashtirish, jamiyat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqal-ashtirish;
- ta'lim olishda, shuningdek, yoshlarni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy

jihadidan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlar rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tizimini yaratish va joriy etish;

- uzluksiz ta'lim tizimida fan, ta'lim va amaliyot bilan integratsiyalashning mukammal mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq ishlarda chek el bilan hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish va rivojlantirish;

- ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish va h.k.

Intellectual salohiyatli avlod tarbiyasining bu qayd etilgan ketma-ketligiga 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asos qilib olingan bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning amaliy faoliyatigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olgan va o'z xususiyatiga ko'ra intellectual salohiyatli avlodni shakllantirishga kompleks yondashuvdir [6].

Demak, bizda to'la ma'noda zamon bilan hamnafas raqobatbardosh intellectual salohiyatli avlod orzusini ifodalashga ma'naviy, iqtisodiy va qonuniy asoslarimiz bor. Shu sababli ham shakllanayotgan, biz kutayotgan avlod o'z ixtisosligi bo'yicha jahon talablari darajasiga javob beruvchi, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi mutaxassis, yuksak ma'naviyatli va axloqiy etuk, ya'ni barkamol bo'lishi lozim. Intellectual salohiyatli avlod tarbiyasi uchun qayd etilgan ta'lim tizimi tarkibi Davlat ta'lim standartlari talablari asosidagi kadrlar tayyorlashning uzviy tarkibiy qismi bo'ladi va undan foydalanib jahon ta'limi talablari-ga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [Zilola Rasulova. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-](#)

[sharoitlari // Science and Education. 2021. №10.](#)

2. Leontiev A.N. Psixikani rivojlantirish muammolari. 4-nashr, - M., 1981 yil.

3. [Загвязинский В. И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования. 7-е изд. М.: Академия, 2012. 3. Загвязинский В. И. Исследовательская деятельность педагога. 3-е изд. М.: Академия, 2010.](#)

4. [Самиева Ш., Шодмонова М., Рахматова Г. Инновацион таълим муҳитида бўлажак мутахассислар ижодкорлик ва лойиҳалаш кўникмаларини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари: Самиева Шахноз Хикматовна, педагогика фанлари номзоди, Бухоро муҳандислик-технология институти доценти Шодмонова Мижгона Салимовна, Бухоро муҳандислик-технология институти стажёр-тадқиқотчиси Рахматова Гулмира Насилло қизи, Бухоро муҳандислик-технология институти стажёр-тадқиқотчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 154-162.](#)

5. [Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. Олий таълимда стратегик фикрлаш ва креатив бoshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.](#)

6. [Самиева Ш. X., Усмонова Г. X. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.](#)

SAMIYEVA SHAKHNOZ KHIKMATOVNAAssociate Professor of Bukhara State University, P.F.F.D. (PhD)
samiyeva-1978@mail.ru, +998905103103**HISTORICAL-PEDAGOGICAL CONDITIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITIES BASED ON A CREATIVE APPROACH**

Annotation: This article analyzes the process of preparing future teachers for innovation, highlights the historical directions of this activity. It also provides information about pedagogical research, patterns, structure, mechanism of teaching and upbringing, theory and history of pedagogy, methods of organizing educational work, its content, principles, methods and organizational forms.

Keywords: innovative activity, spiritual virtue, education, youth, research, theory of pedagogy.

ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье анализируется процесс подготовки будущих педагогов к инновационной деятельности, освещаются исторические направления этой деятельности. Также приводятся сведения о педагогических исследованиях, закономерностях, структуре, механизме обучения и воспитания, теории и истории педагогики, методах организации учебно-воспитательной работы, ее содержании, принципах, методах и организационных формах.

Ключевые слова: инновационная деятельность, духовная добродетель, воспитание, молодежь, исследования, теория педагогики.